



UMUMTALIM MAKTABLARIDA MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.

Mirzakarimova Ro'zaxon Alisher qizi
FarDU 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14249173>

ARTICLE INFO

Received: 19 th November 2024

Accepted: 20th November 2024

Published: 29th November 2024

KEYWORDS

*musiqa madaniyati,
bastakor, kompazitorlar,
mashg'ulot, ibora, ansambl,
atama va ibora*

ABSTRACT

Ushbu maqolada umumtalim maktablarida musiqa ta'limi o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish zaruriyati va pedagogik imkoniyatlari haqida so'z boradi.

“Musiqqa madaniyati” o‘quv fanining mazmuniga bo‘lgan talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi. Boshlang‘ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkori faoliyati, musiqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr bastakorlari va kompozitorlar ijodini, o‘zbek xalq cholg‘u asboblari bilishni, mashhur o‘zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari, o‘zbek mu siqasida zamonaviylik va zamonaviy musiqa, milliy estrada-musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o‘quv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar vositasida bajariladi.

1. Musiqa tinglash.

2. Jamoa bo‘lib kuylash.

3. Musiqa savodi.

4. Musiqa ijodkorligi.

Musiqa tinglash ta‘lim mazmunining asosini tashkil etadi. Ularni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o‘rganish bilan bir q‘atorda cholg‘uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari bilan har tomonlama o‘rganish va o‘zlashtirish. musiqiy tavsiflarni ifodalasrr imkoniyati yaratiladi. O‘zbek xalq musiqasi o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari, musiqiy asarlaridan namunalar tinglanadi.

Jamoa bo‘lib kuylash faoliyati o‘quvchilarning musiqiy qobiliyati hamda ijrochilik nialakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bolib kuylash jarayonida o‘quvchi o‘z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo‘rnavozlik qilishgan tiladi. O‘zbek xalq qo‘shiqlari, o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari-qo‘shiqlari, jahon va qardosh xalqlar kompozitorlari qo‘shiqlari. Mahalliy musiqa uslublariga old folklor qo‘shiqlaridan namunalar kuylaydilar.

Musiqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg‘uloti (tinglash. ijro etish, musiqiy harakatlar) bo‘lmasin, berilgan mavzudagi asar ovranganiladi va lining xususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiigi) haqida yangi tushunchalar hosil bo‘ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o‘rganishdan iborat bo‘lmay, balki o‘quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib

toptiruvchi umumiy: bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiiigi, 1 xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqqa, nota savodi) tashkil etadi. Musiqa savodida musiqiy atamalar. an'analar, templar (suriat), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beriladi. Musiqa tinglash yakkanavozlik va jo'rnovozlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay bilish. sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish. O'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash ta'lim mazmunini tashkil etadi.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish deganda biz musiqaga oid bo'lgan barcha bilimlarni o'zlashtirishni tushunamiz.

Xususan:

- 1) Musiqa savodi (musiqa nazariyasining boshlang'ich bilimlari);
- 2) Musiqa tinglash va tahlil qilish;
- 3) Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash;
- 4) Musiqiy ijodkorlik (musiqaga mos harakatlar qilish, bolalar cholg'u cholg'ularida chalib, musiqaga ritmik jo'r bo'lish).

Musiqa darsining asosiy xususiyati shundaki, musiqa ta'limining to'rt faoliyati mustaqil jarayon bo'lishi bilan birga, ulamibir-biri bilan uzviy aloqada, o'zaro bog'liq ravishda olib borish kerak. Ushbu jarayonlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, ularni ijodiy shaxs bo'lib etishishlariga zamin yaratadi.

Darsning mohiyati, mazmuni va mavzusidan kelib chiqqan holda darsdagi biror bir faoliyat birinchi o'ringa chiqib qolishi mumkin. Musiqa darsining tuzilishi asosan, musiqiy ijrochilikni tashkil etadi, Lekin shuni unutmaslik kerakki, birgina ashula aytish uchun nota yozuvi, dinamikasi, shtrixlarini bilish zarurdir. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda jamoatchilik, do'stlik, birdamlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu jarayonda butun sinf jamoa bo'lib, «bir yoqadan bgsh chiqarib» faol ishtirok etadilar. Shu tufayli musiqiy qobiliyati sust bo'lgan o'quvchilar faol va yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilarga ergashadilar. Musiqiy qobiliyat faqatgina musiqiy amaiiyot, musiqa san'atiga xos bo'lgan musiqiy material va maxsus usullar orqaligina rivojlantirilishi mumkin, ya'ni aynan musiqa insonning-musiqiy hislarini uyg'otadi.

Musiqa darsi har xil musiqiy nazariy faoliyatlarni o'z ichiga oladi: ashula aytish (vokal xor tarbiyasi, solfejo), musiqaning elemental nazariyasi (musiqa savodi), musiqa tinglash, musiqa tahlili, musiqa adabiyoti, musiqa ostida harakatlar bajarish. Quyida biz bir darsning tuzilishini misol tariqasida keltiramiz:

Darsning mavzusi - Musiqaning ifoda vositalari. Darsning turi - predmetlararo uzviylik.

Darsning maqsadi:

1) ta'limiy maqsad: musiqaning ifodalovchi vositalar haqida tushuncha berish, ovoz sozlovchi mashqlar bajarish, yangi qo'shiq o'rgatish, musiqiy asar tinglash, avvalgi o'tilgan mavzulami takrorlash va mustahkamlash;

2) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarning musiqiy idrok, did, dunyoqarash va tafakkurlarini shakllantirish, musiqiy asarga va uning yaratuvchilariga nisbatan hurmat va qiziqishni uyg'otish, qo'shiq matni va musiqa ta'sirchaniigi yordamida o'quvchilarda axloqiy fazilatlarini shakllantirish.

Qo'llaniladigan adabiyotlar - darslik, solfejo darsligi;

Darsning borishi:

1. Sinfni uyushtirish:

a) musiqiy kirish; b) o'quvchilarni yo'qlama qilish; v) darsning mavzusini ehlon qilish.

Amaliy ishlar: a) ovoz sozlash mashqlari: har xil metodik usullar yordamida; b) stakatto va legato usullarida kuylash.

2. Yangi materialni o'tish:

a) qo'shiq o'rgatish: jumialarga bo'lib, nafas va ovozni to'g'ri yo'lga qo'ygan holda;

- b) intervallami tushuntirish: har xil misol va usullar yordamida;
- v) musiqa tinglash: metodik usullar yordamida - rasm chizish, bayon etish va hokazo;
- g) bolalar musiqa cholg'ularida jo'r bo'lish va ritmik harakatlar bajarish; o'rganilayotgan qo'shiq yoki tinglanayotgan musiqiy asarga mos chapaji chalish, bolalar cholg'ularida (doyra, shiqildoq, surnaycha, metallafon...) jo'r bo'lish;
- d) ijodiy vazifalar: mustaqil tarzda kuyga jo'r bo'lish uchun qaysi musiqiy cholg'u mosligini aniqlash, tinglangan kuy qanday xotira yoki tasavvurlarni uyg'otishini, tinglangan musiqiy asar qaysi ladda yozilganligini aniqlash (major yoki minor), asaming janrini aniqlash (qo'shiq, raqs, marsh), asaming o'lchovini, tempini, dinamik belgilarini aniqlash. Asardan olingan taassurotlarga tayangan holda rasm chizish.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

4. Uyga vazifa berish: yangi qo'shiq matnini yodlash, «Musiqa ifoda vositalari» mavzusini yodlab kelish.

II.2. Musiqa madaniyati fanini o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan musiqa ta'limi kompetensiyalarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarini qo'llash modeli. Musiqiy ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini o'zaro bog'liq hamkorlikdagi faoliyatlarining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shakli deb e'tirof etiladi. Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan. Individual ta'lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun ham ayniqsa, kasb-hunar tayyorgarligida bu usul bizning davrimizgacha

saqlanib qolgan. Uning ustunligi o'quv faoliyati mazmuni, metodi va sur'atini to'la individuallashtirishga imkon berishidan iborat. Individual ta'lim o'qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo'lishini talab etadi. Individual o'qitishning ustunliklari bilan bir qatorda quyidagi kamchiliklari ham mavjud:

- 1) ko'p vaqt talab etilishi;
- 2) o'qituvchi tasirining cheklanganligi;
- 3) boshqa tahsil oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi;
- 4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

Mazkur kamchiliklar XVI asrdan boshlab individual o'qitishning ahamiyatini bir muncha pasayishiga va uning muqobili sifatida ta'limning individual-guruhli shaklini kelib chiqishiga imkon berdi. Ta'limning individual-guruhli shaklidan Yevropada, XVI asrda keng foydalana boshlandi. O'qituvchi navbat bilan har bir tahsil oluvchidan o'tilgan materialni so'raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan tahsil oluvchilar o'z ishlari bilan shug'ullanadilar. O'qishni bunday tashkil etishda, tahsil oluvchilar mashg'ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo'lgan.

XV - XVI asrlarda Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o'zgarishlar ta'limning ommaviy shaklini yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Ulardan biri XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida sinf-dars tizimini nazariy jihatdan asoslab berdi va ommaviylashtirishga muhim o'z hissasini qo'shdi. Komenskiy pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars, mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritdi.

Sinf-dars tizimi garchi 360 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Sinf-dars tizimining mazmuni o'quv ishlarini tashkil etishning o'ziga xos shakli sifatida quyidagilardan iborat:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan tahsil oluvchilar sinf yoki guruhni tashkil etadi. Bu sinf yoki guruh ta'lim muassasasida o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;
- ta'lim oluvchilar yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi.;
- mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

- dars odatda bir o'quv predmeti yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois tahsil oluvchilar sinf yoki guruhda bitta material ustida ishlaydilar;
- darsda tahsil oluvchilarning ishiga o'qituvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalari, har bir tahsil oluvchini alohida bilimni baholaydi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantirildi va uning barcha ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'ratadi:

1) ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va tahsil oluvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha "darsga go'yoki —eshik" hisoblanadi.

2) asosiy masalani hal etishga yo'naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisoblanadi.

3) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Afzalliklari: yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonining aniq belgilangan tartib asosida kechishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonning o'qituvchi tomonidan boshqarilishi: o'quv muammosining tehsil oluvchilar yoki ishtirokchilar jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini hamkorlikda izlash jarayonida tahsil oluvchilar orasida o'zaro musobaqa munosabatlarining shakllanishi;

- o'qituvchining tahsil oluvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emosional ta'sir ko'rsatishi;

- ta'limning emosionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida tahsil oluvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari: tizimning o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi tahsil oluvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh yoki juda yaxshi o'zlashtiruvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi;

-o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, tahsil oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishdagi qiyinchilikning yuzaga kelishi;

-katta va kichik yoshli tahsil oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

Sinf-dars tizimida mashg'ulot talabalar yoshi va tayyorgarlik darajasiga binoan tabaqalashtirilib, ma'lum o'quv dasturi va jadval asosida o'qituvchi rahbarligida tashkil etilib o'tkaziladi. Hozirgi paytda darslarni tashkil etib o'tkazishga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Darsning maqsad va vazifalarining aniqligi, o'zaro bog'liqligi hamda psixologik, pedagogik, fiziologik nuqtai nazardan maqbulligi.

2. Darsning mazmunan va tuzilmaviy jihatdan yaxlitligi.

3. Ishtirokchilarining ta'minlanganligi ongli o'zaro hamkorlik faoliyatining ta'minlanganligi.

4. O'quvchilarning o'qib-o'rganishlari, tarbiyalanishlari va rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

5. Barcha didaktik va xususiy prinsiplarga asoslanganligi.

6. O'quvchilar shaxsini hurmat qilish, ularning faolligi, erkinligi, mustaqilligi, ijodkorligi kabilarga shart-sharoit yaratilishi kabilar.

Shu o'rinda hozirgi paytda ham ta'lim-tarbiyani yakka tartibda tashkil etish shakli saqlanib qolgan bo'lib, ayniqsa undan talabalarining ehtiyoji, xohishi, qiziqishlari, ba'zan o'zlashtirmaslikni bartaraf etish, uzoq vaqtlar davomida tibbiyot xodimlari nazoratida bo'lgan yoshlarga ko'maklashish maqsadida undan foydalanilmoqda.

Hozirgi paytda kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi xususiyatlariga binoan turlanishi ko'p sonli pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilgan:

Nofaol. Bu jarayonda o'quv materialini o'qituvchi tomonidan tayyor holda uzatiladi, tahsil oluvchilar faqat eshitadilar, kuzatadilar va imkon qadar xotirada saqlashga harakat qiladilar.

Faol. Kasbiy ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'zaro bir-birlariga nisbatan faol muloqot va munosabatda bo'lib, o'rganilayotgan obyekt ma'nosi hamda mohiyatini anglab yetadilar. Chunki bu jarayonda o'qituvchi va tahsil oluvchilar orasida qaytar aloqa ta'minlanadi.

Interfaol shaklda tahsil oluvchilar o'zaro muloqot va munosabatlari yo'lga qo'yilib, o'qituvchi ham, tahsil oluvchilar ham faol ishtirok etib, o'rganilayotgan obyektning mohiyati anglanib, amalda qo'llanishi ham aniq misollar yordamida ko'rsatiladi. Bunday ta'lim shakllarini ba'zi bir pedagoglar monologik, dialogik va poliologik ta'lim sifatida ham talqin etadilar. Ta'limning zikr etilgan shakllarini chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin.

Sinf-dars tizimining asosiy o'ziga xos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajasidagi talabalar ishtirok etadi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq alohida-alohida qismlar ko'rinishiga ega bo'ladi;
- har bir dars o'quv rejasiga kirgan ma'lum bir o'quv predmetiga oid bo'ladi;
- darslar muntazam ravishda almashib turadi;

- kasbiy ta'lim darslariga o'qituvchi, muhandis-pedagog, yo'riqchi, tajribali mutaxassis kabilar rahbarlik qiladi;

- talabalar turli ko'rinishdagi o'quv-bilish faoliyatida ishtirok etadilar.

Quyidagilar sinf-dars tizimining ijobiy tomonlari hisoblanadi:

- qat'iy tashkiliy tuzilmaga egaligi;

- iqtisodiy ko'rsatkichlarining nisbatan yuqoriligi. Sababi bir o'qituvchi bir vaqtning o'zida ko'p sonli talabalar bilan ishlaydi;

- o'zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratilganligi kabilar.

Shu bilan birga sinf-dars tizimining quyidagi kamchiliklari ham e'tirof etilgan:

O'rtacha talabaga mo'ljallanganligi; har bir talaba bilan individual ishlash imkoniyatining yo'qligi; qat'iy tuzilmaga egaligi va shu kabilar.

Ijtimoiy talablar, kasbiy ta'limning maqsad va vazifalari, talabalarning talab va ehtiyojlari, ta'lim-tarbiya qonuniyatlari, prinsiplari kabilarga ko'ra kasbiy ta'lim darslariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so'nggi yutuqlari, ilg'or, pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib dars tuzilmasini maqbullashtirish;

- darsda barcha didaktik va oliy musiqa ta'limining xususiy prinsiplarining maqbul nisbati hamda uyg'unligini ta'minlash;

- talabalarning ongliligi, qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda faol, mahsulli o'quv-bilish faoliyatiga shart-sharoit yaratish;

- o'quv materialining mukammal o'zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish;

- talabalar tomonidan ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko'rish;

- talabalarning barcha ijobiy jihatlari rag'batlantirish, o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo'li bilan talabalar shaxsini rivojlantirishga erishish;

- didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish;

- nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog'lab o'rganish;

- zaruriy bilim, xatti-harakat usullari, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko'rsatish usullarini tarkib toptirish;

- talabalarda muntazam va uzluksiz ravishda o'qib-o'rganish, o'zining bilim va kasbiy mahoratini oshira borish ehtiyojini shakllantirish;

- darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat qilish, tashhishlash va shu kabilar.

Kasbiy ta'limga oid zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy bog'liq: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va motivasion maqsadlarni uyg'unlashtirish bu sohada aniq maqsadlarni belgilab olishni talab etadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan xulosa qilingan fikrlarga tayanib Musiqa madaniyati fanini o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan darslarda pedagogik texnologiyalarini qo'llash modelimizni taqdim etamiz:

Musiqa ta'lim tizimining tahlillari va o'zidagi ijobiy jihatlarini umumlashtirish musiqa darslarining yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Zamonamiz taqozosi bilan musiqa darslari yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun ularda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash yaxshi natija bermoqda. Darslar qiziqarliroq, jo'shqin, ko'tarinki ruhda o'tishi uchun biz quyidagi dars turlarini taklif etamiz:

Konsert darslar, viktorina darslar, intervyu darslar, konkurs darslar, yo'naltiruvchi darslar (illyustrativ material yordamida), «stol atrofida» darslari, o'z-o'zini anglash darslari^ himoya darslari, rasmlar galereya darslari, quvnoqlar va zukkolar darsi, bahs munozara darslari va hokazoilar. Bu darslarning har biri o'z tuzilishi, vazifasi va metodik asosiga egadir.

Boshlang'ich sinflarda darslarni o'yin tarzida olib borilsa, o'quvchilarning faolligi oshib boradi va ular berilgan vazifalarni nisbatan oson bajaradilar. Masalan, musiqiy cholg'ular mavzusini o'tganda, o'quvchilarga turli xildagi musiqa cholg'ulari surati solingan kartochkalar beriladi. O'qituvchi magnitofon yordamida biror bir cholg'uda ijro etilgan musiqani qo'yadi. O'quvchilar musiqiy asar qanday cholg'uda ijro etilganligini qo'llaridagi kartochkalar orqali ko'rsatadilar. Eng faol qatnashgan o'quvchilar baholanadilar va rag'batlantiriladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. - Toshkent.: O'zbekiston, 2020.
2. D.Soipova Umumta'lim maktablari musiqa savodini tashkil etish O'quv qo'llanma:Toshkent - 2008 y
3. Murodova D. Musiqa pedagogikasi va psixologiyasi O'quv qo'llanma: Farg'ona – 2023 y.
4. Iminova, D. N. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA MAKTAB O'RTASIDAGI HAMKORLIKNING AHAMIYATI. Science and Education, 2(1), 301-303.
5. Iminova, Dilnoza. "MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI BILISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH." Models and methods in modern science 1.17 (2022): 54-56.
6. Abduraxmonova S. Sh. (2021). THE IMPORTANCE OF PRESCHOOL LITERATURE FOR CHILDREN OF PRESCHOOL EDUCATION. European Scholar Journal, 2(4), 447-449.